O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

2026-yil 25-26-sentabr

(2-qism)

JIZZAX-2026

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2026-yil 25-26-sentabr. 315-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., т.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD) dots., Norbekova B.Sh. p.f.f.d.(PhD) dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

modellashtirishni-rgatishda-ahborot-kommunikatsiya-tehnologiya-vositalaridan-foydalanish-or

5. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. URL: https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/psixologiya/Umumiy%20psixologiya.%201-kitob%20(E.G'oziyev).pdf

6. Hozirgi zamon pedagogini kasbiy shakllantirish (o'quv-uslubiy qo'llanma). Ziyonet elektron kutubxonasi. URL: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/473012/5b715b580648e.pdf

7. Olimlar va raqamli ta'lim: pedagog va rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi // BIMM elektron kutubxonasi. URL: https://lib.bimm.uz/items/download/1198

O'QITUVCHILARNING INNOVATSION FAOLIYATGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

To‘raqulov U.X.

ped.fan.fals.dokt.(Phd), dotsent. O‘zMU JF

Maratova V.O.

Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi. O‘zMU JF

Xolbutaeva S.O.

A.I.Gersen 2-kurs magistri.

To‘raqulova G.U.

O‘zMU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga psixologik tayyorgarligini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. "Psixologik tayyorgarlik" tushunchasining fanda shakllanish tarixi, unga nisbatan funksional, shaxsiy va shaxsiy-faoliyatli yondashuvlar, tayyorgarlikning struktura-funksional modeli, uning uzoq muddatli (barqaror) va vaziyatli (vaqtinchalik) turlari, shuningdek shakllanish bosqichlari va mezonlari yoritilgan. Olingan nazariy xulosalar asosida o'qituvchilarda innovatsion faoliyatga psixologik tayyorgarlikni shakllantirishning kontseptual modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: psixologik tayyorgarlik, innovatsion faoliyat, funksional yondashuv, shaxsiy-faoliyatli yondashuv, ustanovka, tayyorgarlik strukturasi, shakllanish bosqichlari.

Аннотация: В данной статье анализируются научно-теоретические основы формирования психологической готовности учителей к инновационной деятельности. Рассмотрены история становления понятия «психологическая готовность» в науке, функциональный, личностный и личностно-деятельностный подходы к его изучению, структурно-функциональная модель готовности, её долговременный и ситуативный виды, а также этапы и критерии формирования.

Ключевые слова: психологическая готовность, инновационная деятельность, функциональный подход, личностно-деятельностный подход, установка, структура готовности, этапы формирования.

Annotation: This article analyzes the scientific-theoretical foundations of forming teachers' psychological readiness for innovative activity. It examines the historical development of the concept of "psychological readiness" in science, the functional, personal and personal-activity approaches to its study, the structural-functional model of readiness, its long-term and situational forms, as well as the stages and criteria of its formation.

Keywords: psychological readiness, innovative activity, functional approach, personal-activity approach, set (installation), structure of readiness, formation stages.

Kirish: O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosi pedagogika fanida ko'proq metodik-texnologik nuqtai nazardan o'rganilgan bo'lsa, uning chuqur psixologik-nazariy asoslari — ya'ni "psixologik tayyorgarlik" tushunchasining mohiyati, tuzilishi va shakllanish qonuniyatlari — hali yetarlicha tizimlashtirilmagan. Bu esa amaliyotda innovatsion faoliyatga tayyorlashning ko'pincha intuitiv, nazariy jihatdan asoslanmagan usullar bilan olib borilishiga sabab bo'lmoqda.

Muammoning dolzarbligi shundan iboratki, "psixologik tayyorgarlik" umumpsixologik kategoriya sifatida turli davrlarda turlicha talqin qilingan — ba'zi tadqiqotchilar uni vaqtinchalik psixik holat, boshqalari esa shaxsning barqaror sifati sifatida ko'rib chiqishgan. Ushbu nazariy xilma-xillikni tizimlashtirish va uni innovatsion pedagogik faoliyat kontekstida qo'llash zaruriyati mazkur tadqiqotning ilmiy-nazariy asosini tashkil etadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi

"Faoliyatga psixologik tayyorgarlik" tushunchasi jahon psixologiya fanida uzoq tarixga ega. Uning nazariy ildizlari D.N. Uznadzening ustanovka (installation) nazariyasiga borib taqaladi, unga ko'ra shaxsning muayyan faoliyatga tayyorligi ehtiyoj va vaziyatning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keluvchi ichki psixologik moslanish holati sifatida talqin etiladi [1].

Tayyorgarlik muammosini har tomonlama tizimli tadqiq etgan M.I. Dyachenko va L.A. Kandibovichning fundamental ishida (1976) tayyorgarlik shaxsning kasbiy faoliyatni bajarishga nisbatan "sozlanganligi" va sifati sifatida ta'riflanadi hamda uning ikki asosiy turi uzoq muddatli (barqaror) va vaziyatli (vaqtinchalik, operativ) tayyorgarlik ilmiy asoslab berilgan [2]. Ularning tadqiqotlarida tayyorgarlik

holatining yuzaga kelishi ehtiyoj va motivlar asosida maqsad qo'yishdan boshlanib, reja va ustanovkalarni ishlab chiqish, so'ngra faoliyatni amalga oshirish va uning natijalarini kutilgan model bilan solishtirib, zarur tuzatishlar kiritish bosqichlarini o'z ichiga olishi ko'rsatilgan.

N.D. Levitov psixik holatlar nazariyasi doirasida tayyorgarlikni shaxsning vaqtinchalik psixik holati sifatida tahlil qilgan bo'lsa [3], keyingi tadqiqotlarda (R.D. Sanjayeva va boshqalar) tayyorgarlik muammosi zamonaviy psixologiyaning metakategoriyasi sifatida, ya'ni turli xil ko'rinishlar (holat va shaxs xususiyati) diалектik birligi sifatida ko'rib chiqilgan [4]. Shuningdek, tayyorgarlikka nisbatan funksional va shaxsiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili alohida tadqiqotlarda chuqur yoritilgan bo'lib, funksional yondashuv tarafdorlari (A.V. Barabanshchikov, N.A. Belousov, V.V. Sisoyev) tayyorgarlikni vaziyatni oldindan bashorat qilish asosida yuzaga keluvchi murakkab psixik holat sifatida, shaxsiy yondashuv tarafdori A.V. Moshchenko esa uni shaxsning yaxlit namoyon bo'lishi sifatida talqin qilgan [5].

O'zbek psixologiya-pedagogika fanida bo'lajak va faoliyatdagi o'qituvchilarni kasbiy va innovatsion faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari E. G'oziyev, U.K. Tolipov kabi tadqiqotchilarning ishlarida ishlab chiqilgan bo'lib, ularda shaxs faoliyati va uning kasbiy shakllanish qonuniyatlari, shuningdek pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti ilmiy asoslangan [6].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tarixiy-nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli-strukturaviy yondashuv hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. "Psixologik tayyorgarlik" tushunchasiga nisbatan mavjud ilmiy yondashuvlar (funksional, shaxsiy, shaxsiy-faoliyatli) xronologik va mazmuniy jihatdan qiyoslandi, bu esa innovatsion faoliyatga tayyorgarlikning yaxlit nazariy modelini shakllantirish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

1. "Psixologik tayyorgarlik" tushunchasiga nazariy yondashuvlar

Funksional yondashuv. Bu yondashuv tarafdorlari tayyorgarlikni asosan psixofiziologik va operativ jihatdan, ya'ni nerv tizimining faoliyatga safarbar bo'lgan vaqtinchalik holati sifatida talqin qiladi. Bunda tayyorgarlik ma'lum bir vaziyat oldidan yuzaga keladigan va vaziyat tugagach so'nadigan operativ holat sifatida qaraladi. Innovatsion pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan bu yondashuv o'qituvchining aniq bir innovatsion vazifani (masalan, yangi metodni birinchi marta qo'llash darsi) bajarishga bevosita safarbar bo'lgan operativ holatini tushuntirishga xizmat qiladi, biroq uzoq muddatli innovatsion faollikni izohlash uchun yetarli emas.

Shaxsiy (lichnostli) yondashuv. Bu yondashuvga ko'ra tayyorgarlik vaqtinchalik holat emas, balki shaxsning barqaror, integral xususiyati — uning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, kasbiy yo'nalganligi va xarakter xususiyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab shaxsiy tuzilma sifatida ko'rib chiqiladi. Shu nuqtai

nazardan innovatsion faoliyatga tayyorgarlik o'qituvchining vaqtinchalik kayfiyati emas, balki uning kasbiy dunyoqarashi va shaxsiy pozitsiyasining tarkibiy qismidir.

Shaxsiy-faoliyatli (integrativ) yondashuv. Zamonaviy tadqiqotlarda ustuvorlik qozongan bu yondashuv yuqoridagi ikki yo'nalishni birlashtirib, tayyorgarlikni bir vaqtning o'zida ham operativ holat, ham shaxsning barqaror xususiyati sifatida, ular o'rtasidagi dialektik birlik nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Mazkur tadqiqot aynan shu integrativ yondashuvga tayanadi, chunki innovatsion faoliyatga tayyorgarlik ham o'qituvchining barqaror kasbiy-shaxsiy sifati (masalan, ochiqlik, ijodkorlik), ham har bir aniq innovatsion vaziyatda namoyon bo'ladigan operativ psixik holat (masalan, konkret loyihaga safarbarlik) sifatida bir vaqtda mavjud bo'ladi.

2. Innovatsion faoliyatga psixologik tayyorgarlikning struktura-funksional modeli

M.I. Dyachenko va L.A. Kandibovichning klassik modeliga tayangan holda, innovatsion faoliyatga psixologik tayyorgarlikning tuzilishini quyidagi funksional bloklarga ajratish mumkin:

motivatsion blok - innovatsiyaga nisbatan ehtiyoj va motivlarning shakllanganligi;

kognitiv-orientatsion blok - innovatsion faoliyat mohiyati, uning maqsad va vositalari haqidagi bilimlar tizimi;

operatsional blok - innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur ko'nikma va malakalar;

irodaviy-mobilizatsion blok - qiyinchiliklarni yengish va faoliyatni maqsadga muvofiq davom ettirish uchun ichki resurslarni safarbar eta olish;

baholovchi-refleksiv blok - o'z tayyorgarlik darajasini va faoliyat natijalarini adekvat baholay olish.

Ushbu bloklarning har biri tayyorgarlikning yaxlit tizimida o'zaro funksional bog'liqlikda bo'lib, ularning birortasining yetishmasligi umumiy tayyorgarlik darajasini pasaytiradi. Bu model, D.N. Uznadze ustanovka nazariyasiga muvofiq, tayyorgarlikni shunchaki bilim va ko'nikmalar yig'indisi emas, balki shaxsning faoliyatga nisbatan yaxlit ichki moslanish holati sifatida tushunishga imkon beradi [1].

3. Psixologik tayyorgarlikning turlari: uzoq muddatli va vaziyatli tayyorgarlik

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni ikki darajada ko'rib chiqish maqsadga muvofiq: uzoq muddatli (barqaror) tayyorgarlik bu o'qituvchining umumiy kasbiy-shaxsiy sifati bo'lib, u yillar davomida shakllanadi va nisbatan barqaror xususiyatga ega; vaziyatli (operativ) tayyorgarlik esa muayyan bir aniq innovatsion loyiha yoki vazifani bajarish oldidan yuzaga keladigan, vaziyatga bog'liq psixik holatdir [2]. Amaliyotda bu ikki daraja o'zaro ta'sirlashadi: barqaror

tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lgan o'qituvchida har bir aniq innovatsion vaziyatda operativ tayyorgarlik holati tezroq va samaraliroq shakllanadi.

4. Psixologik tayyorgarlikni shakllantirish jarayonining bosqichlari

O'tkazilgan nazariy tahlil asosida o'qituvchilarda innovatsion faoliyatga psixologik tayyorgarlikni shakllantirish jarayonini quyidagi izchil bosqichlarga ajratish mumkin:

1) sensibilizatsiya bosqichi - o'qituvchida innovatsiyaga nisbatan dastlabki qiziqish va ehtiyojning uyg'onishi;

2) orientatsion bosqich - innovatsion faoliyat mohiyati, maqsad va vositalari haqida bilimlarni egallash;

3) amaliy-operatsional bosqich - innovatsion ko'nikma va malakalarni amaliy mashqlar, treninglar orqali shakllantirish;

4) mustahkamlash-integratsiya bosqichi - orttirilgan tajribani muntazam qo'llash orqali innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni barqaror shaxsiy sifatga aylantirish;

5) refleksiv-korrektsion bosqich - o'z faoliyatini muntazam tahlil qilish va tayyorgarlik darajasini yanada takomillashtirish.

Bu bosqichlar chiziqli emas, balki spiralsimon xarakterga ega o'qituvchi har yangi innovatsion vazifa oldida qisman qaytadan orientatsion va amaliy bosqichlarni bosib o'tishi mumkin, biroq bu safar u avvalgi tajribaga tayangan holda buni tezroq va samaraliroq amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga psixologik tayyorgarligini shakllantirish nazariy jihatdan D.N. Uznadzening ustanovka nazariyasi, M.I. Dyachenko va L.A. Kandibovichning struktura-funksional modeli hamda zamonaviy shaxsiy-faoliyatli yondashuv asosida tushunilishi lozim. Tayyorgarlikni bir vaqtning o'zida ham barqaror shaxsiy sifat, ham operativ psixik holat sifatida talqin qiluvchi integrativ nazariy model amaliyotda uni shakllantirishning izchil, bosqichma-bosqich strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi. Ushbu nazariy asoslar bo'lajak va faoliyatdagi o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik dasturlarini ishlab chiqishda muhim yo'naltiruvchi vazifani bajaradi. Keyingi tadqiqotlarda taklif etilgan nazariy modelning empirik tekshiruvdan o'tkazilishi dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Узнадзе Д.Н. Экспериментальные основы психологии установки. — Тбилиси: Изд-во АН Грузинской ССР, 1961 (умумпсихологик ustanovka nazariyasi bo'yicha klassik manba).

2. Дьяченко М.И., Кандыбович Л.А. Психологические проблемы готовности к деятельности. — Минск: Изд-во БГУ, 1976. — 212 с. URL: https://rusneb.ru/catalog/002744_000053_RU___%D0%93%D0%9F%D0%9D%D0

%A2%D0%91+%D0%A0%D0%BE%D1%81%D1%81%D0%B8%D0%B8___KNB_IBIS___88.36___%D0%94+93-021539/

3. Психологическая готовность к профессиональной деятельности студентов-психологов // CyberLeninka. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskaya-gotovnost-k-professionalnoy-deyatelnosti-studentov-psihologov-1

4. Психологическая готовность личности к деятельности как метакатегория // CyberLeninka. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskaya-gotovnost-lichnosti-k-deyatelnosti-kak-metakategoriya

5. Проблема психологической готовности к управленческой деятельности и личностно-функциональный подход к её исследованию // CyberLeninka. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/problema-psihologicheskoy-gotovnosti-k-upravlencheskoy-deyatelnosti-i-lichnostno-funktsionalnyy-podhod-k-eyo-issledovaniyu

6. Tolipov U.K. Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti: pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2012; G'oziyev E. Umumiy psixologiya. — Toshkent, 2010. URL: https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/psixologiya/Umumiy%20psixologiya.%201-kitob%20(E.G'oziyev).pdf

7. Психологическая готовность к профессиональной деятельности и методы её формирования // CyberLeninka. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskaya-gotovnost-k-professionalnoy-deyatelnosti-i-metody-ee-formirovaniya

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

To‘raqulov U.X.
ped.fan.fals.dokt.(Phd), dotsent. O‘zMU JF

Maratova V.O.

Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi. O‘zMU JF

Xolbutaeva S.O.

A.I.Gersen 2-kurs magistri.

To‘raqulova G.U.

O‘zMU talabasi